Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

01 October – 14 November 2026

UDK 336

O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGI BOSHQARUVINING IQTISODIY-NAZARIY ASOSLARI.

Abduraxmon Sultonovich Asraqulov[a,*], Maftuna Axmadjon qizi Raximova[b]

[a] *Farg‘ona davlat universiteti, “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d., PhD,*

[b] *Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

✉ asasrakulov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O’zbekiston sog’liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini boshqarishning iqtisodiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Samaradorlik, xarajatlar tuzilmasi va resurslarni taqsimlash kategoriyalarining mazmuni ochib berilgan, shuningdek sog’liqni saqlash iqtisodiyoti sohasidagi asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Sog’liqni saqlashni moliyalashtirish manbalari, xarajatlar samaradorligini baholashning mezon va ko’rsatkichlari tizimlashtirilgan. Muallif xarajatlar samaradorligini boshqarishning milliy tizimdagi o’ziga xos jihatlarini aniqlab, uni takomillashtirish bo’yicha taklif va tavsiyalarni asoslab bergan. Tadqiqot natijalari sog’liqni saqlash resurslaridan oqilona foydalanish va tizim moliyaviy barqarorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar

sog’liqni saqlash tizimi, xarajatlar samaradorligi, moliyalashtirish, boshqaruv, resurslar, iqtisodiy-nazariy asoslar, O’zbekiston.

DOI: 10.5281/zenodo.23771686

KIRISH.

Sog‘liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishi tibbiy xizmatlarning sifati, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati hamda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bilan bog‘liq. Tibbiyot muassasalarida dori vositalari, tibbiy buyumlar, mehnat resurslari, kommunal xizmatlar, asosiy vositalar, oziq-ovqat va boshqa resurslarga yo‘naltiriladigan mablag‘larning hajmi muntazam ravishda ortib boradi. Xarajatlarning o‘sishi sharoitida moliyaviy resurslardan foydalanish natijadorligini ta’minlash sog‘liqni saqlash tashkilotlari boshqaruvidagi vazifaga aylanadi. Xarajatlarni faqat mablag‘ sarfi sifatida baholash yetarli emas. Sarflangan mablag‘ evaziga qancha va qanday sifatidagi tibbiy xizmat ko‘rsatilgani, mavjud resurslardan qay darajada samarali foydalangani ham baholanadi.

Sog‘liqni saqlash xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tibbiy xizmatlarni tashkil etish va ko‘rsatish jarayonida foydalaniladigan resurslarning qiymatini ifodalaydi. Xarajatlarning tarkibi tibbiyot muassasasining faoliyat yo‘nalishi, xizmatlar hajmi, bemorlar soni, xodimlar tarkibi, moddiy-texnik ta’minot darajasi va moliyalashtirish manbalariga qarab shakllanadi. Xarajatlarni to‘g‘ri guruhlash va ularning shakllanish omillarini aniqlash boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshiradi. Buning uchun xarajatlarning tarkibiy tuzilishi, o‘zgarish sur’atlari, xizmatlar hajmiga ta’siri va moliyaviy natijalar bilan bog‘liqligini muntazam tahlil qilinadi.

Xarajatlarni samarali boshqarish tibbiyot muassasasining moliyaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri rejalashtirishdan boshlanadi. Rejalashtirish jarayonida kelgusidagi xizmatlar hajmi, mavjud resurslar, xarajatlarning o‘zgarish tendensiyalari va moliyalashtirish imkoniyatlari hisobga olinadi. Rejalashtirilgan xarajatlarning amaldagi xarajatlar bilan taqqoslanishi ortiqcha sarflar va resurslardan foydalanishdagi nomutanosibliklarni aniqlash imkonini beradi. Xarajatlarning sabablarini aniqlash boshqaruv qarorlarini aniq ma’lumotlar asosida shakllantirish uchun zarur shart hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi O’zbekiston sog’liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini boshqarishning iqtisodiy-nazariy asoslarini o’rganish, tizimlashtirish va ularni milliy tizim sharoitiga moslashtirgan holda takomillashtirish yo’nalishlarini asoslashdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo’yilgan:

1. Sog’liqni saqlashda “samaradorlik” va “xarajatlar samaradorligi” kategoriyalarining mazmunini va nazariy yondashuvlarini aniqlash.
2. Sog’liqni saqlashni moliyalashtirish manbalari va xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish.
3. Xarajatlar samaradorligini baholash mezonlari va ko’rsatkichlari tizimini asoslash.
4. O’zbekiston sog’liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini boshqarishning o’ziga xos jihatlari va muammolarini aniqlash.
5. Boshqaruv samaradorligini oshirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini davlat moliyasi, budjet tashkilotlari moliyaviy boshqaruvi va sog‘liqni saqlash iqtisodiyotiga oid ilmiy qarashlar, O‘zbekiston Respublikasining budjet qonunchiligi, Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining yondashuvlari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasining metodologiyasi tashkil etdi.

Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, gorizantal tahlil, vertical tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, nisbiy ko’rsatkichlar usuli, guruhlash usullaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat sog‘liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish, moliyalashtirish va ulardan samarali foydalanish masalalari bugungi kungacha bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular tomonidan sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish, xarajatlarni tasniflash hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning turli yondashuvlari asoslab berilgan. Tadqiqotchi M. Ahmedov, R. Azimov, Z. Mutalova, Sh. Huseynov, E. Tsoyi va B. Rechel tomonidan O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi, boshqaruvi va moliyalashtirish mexanizmlari kompleks tadqiq etilgan. Mualliflar sog‘liqni saqlash tizimida resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirish, birlamchi tibbiy yordamni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sog‘liqni saqlash xarajatlarining davlat va xususiy manbalar o‘rtasidagi nisbatini tahlil qilganlar.

M.J. Cho va E. Haverkort o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradigan tibbiy xarajatlarini o‘rgangan. Tadqiqotchilar sog‘liqni saqlash xizmatlarini baholash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va tibbiy xizmatlar sifati to‘g‘risidagi axborotning cheklanganligi resurslardan samarasiz foydalanish xavfini oshirishini asoslab berganlar.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish masalalari G. Kasimova tomonidan ham tadqiq etilgan. Muallif sog‘liqni saqlash sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganib, davlat budjeti xarajatlari, moliyaviy nazorat va budjet tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilgan.

huningdek, G.A. Ruzmetova tomonidan O‘zbekistonda sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishning mavjud tuzilmasini, davlat xarajatlarini, tibbiy sug‘urta mexanizmlarini va moliyaviy barqarorlik masalalarini tahlil qilib, resurslar-

dan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqqan.

Bundan tashqari, A. Islamkulov o‘z tadqiqotida sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston misolida o‘rgangan. Tadqiqotda sog‘liqni saqlash xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, xarajatlar dinamikasi va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning moliyaviy jihatlari tahlil qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlarni boshqarishning yakuniy maqsadi xarajatlarni mexanik ravishda kamaytirish emas, balki mavjud resurslardan foydalanish natijadorligini oshirishdan iborat. Xarajatlarni optimallashtirish jarayonida tibbiy xizmatlarning sifati, aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji va muassasaning moliyaviy imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi kerak. Boshqaruv qarorlari xarajatlarning hajmi, tarkibi va natijaviyligi haqidagi aniq ma’lumotlarga asoslangan taqdirda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati kengayadi (1.1-jadval).

1-jadval

Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari[1]

№	Boshqaruv yo‘nalishi	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Xarajatlarni rejalashtirish	Tibbiyot muassasasining faoliyat hajmi, xizmatlar tarkibi va mavjud resurslaridan kelib chiqib xarajatlarning hajmi hamda tarkibini oldindan belgilash	Moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanish
2	Xarajatlarni tashkil etish	Xarajatlarni tibbiy xizmatlar va ustuvor faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlash, xarajatlarni amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish	Resurslar taqsimotining maqbullashuvi va boshqaruv jarayonlarining muvofiqlashuvi
3	Xarajatlarni muvofiqlashtirish	Moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarining o‘zaro mutanosibligini ta’minlash hamda xarajat yo‘nalishlari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish	Resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi
4	Xarajatlarni nazorat qilish	Rejalashtirilgan va amaldagi xarajatlarni muntazam kuzatish, belgilangan me’yorlardan og‘ishlarni aniqlash va ularning sabablarini baholash	Ortiqcha va samarasiz xarajatlarning kamayishi
5	Xarajatlarni tahlil qilish	Xarajatlarning tarkibi, dinamikasi, xizmatlar tannarxiga ta’siri va o‘zgarish sabablarini aniqlash	Boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshirish
6	Xarajatlar samaradorligini baholash	Sarflangan mablag‘lar va erishilgan tibbiy natijalar o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, xarajatlarning natijadorligini baholash	Xarajatlar natijadorligi va tibbiy xizmatlar samaradorligining oshishi
7	Xarajatlarni optimallashtirish	Samarasiz xarajatlarni qisqartirish, resurslardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va xarajatlarning optimal tarkibini shakllantirish	Minimal xarajat bilan yuqori iqtisodiy va ijtimoiy natijaga erishish
8	Boshqaruv qarorlarini takomillashtirish	Xarajatlar to‘g‘risidagi hisob va tahlil ma’lumotlari asosida muqobil boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularning natijalarini baholash	Boshqaruv tizimining natijadorligi va moliyaviy barqarorligini oshirish

Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini boshqarish masalasi iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni maksimal darajada qondirish, xarajatlar va erishilgan natijalar o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta’minlash hamda mavjud resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish bilan bog‘liq. Sog‘liqni saqlash

[1]Muallif ishlanmasi.

xarajatlari samaradorligini baholashda sarflangan mablag‘larning hajmi bilan bir qatorda ularning tarkibi, foydalanish yo‘nalishi, ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar hajmi va yakuniy sog‘liq natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash muhim hisoblanadi.

Zamonaviy yondashuvlarda samaradorlik resurslarning bir xil hajmida yuqoriroq natijaga erishish yoki belgilangan natijani kamroq resurs sarfi orqali ta’minlash imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Bunda resurslarni taqsimlash samaradorligi va tashkilot faoliyatining ishlab chiqarish samaradorligi o‘zaro farqlanadi va sog‘liqni saqlash tashkilotlari uchun mavjud resurslardan maksimal tibbiy natija olish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sog‘liqni saqlash bozorining axborot nomutanosibligi, noaniqlik, moliyalashtirishning ko‘p manbaliligi va davlat ishtirokining yuqoriligi xarajatlarni boshqarishda an’anaviy bozor mexanizmlaridan tashqari maxsus boshqaruv va iqtisodiy baholash vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Sog‘liqni saqlash xarajatlari samaradorligini boshqarishning iqtisodiy-nazariy asoslarini shakllantirishda olimlarni tadqiqotlarida turli xil yondashuvlar asosida o‘rganiladi.

Kenneth J.Arrow sog‘liqni saqlash iqtisodiyotni tahlil qilishda tibbiy xizmatlar bozorining noaniqligi va axborot nomutanosibligini asosiy iqtisodiy muammosi sifatida ko‘rsatadi. Uning yondashuvida sog‘liqni saqlash resurslarini oddiy bozor mexanizmi orqali taqsimlash har doim ham optimal natijani bermaydi. Tibbiy xizmatga bo‘lgan ehtiyojning oldindan aniq belgilanmasligi va tibbiy xizmatlarning o‘ziga xosligi resurslarni boshqarishda alohida iqtisodiy mexanizmlardan foydalanishni talab qiladi. Sog‘liqni saqlash xarajatlarini samaradorligini boshqarishda faqat xarajat miqdori emas, resurslarning ehtiyojiga mos taqsimlanishi va kutilyotgan natijaga yo‘naltirilishini asoslagan[2].

William C.Hasio sog‘liqni saqlash siyosati va xarajatlarni makroiqtisodiy boshqaruv bilan bog‘laydi. Uning yondashuvida sog‘liqni saqlash xarajatlari alohida tarmoq xarajati sifatida emas, iqtisodiyot, aholi salomatligi, resurslar taqsimoti va davlat siyosati bilan bog‘liq tizim sifatida baholanadi. Xarajatlar samaradorligini faqat tibbiyot muassasa darajasida emas, balki hududiy va milliy boshqaruv darajasida ham baholash zarurligini ko‘rsatadi[3].

I.M.Sheyman sog‘liqni saqlash iqtisodiyotida boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlarining tibbiy yordam samaradorligiga ta’sirini o‘rganadi. Sog‘liqni saqlash iqtisodiy rag‘batlar, moliyalashtirish modellari, tibbiy yordam uchun to‘lov usullari va xarajatlar samaradorligini baholash metodlari asosiy yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu yondashuv sog‘liqni saqlash xarajatlarini boshqarishni faqat mablag‘larni taqsimlash jarayoni emas, balki tibbiyot muassasalarining natijadorligini rag‘batlantiruvchi boshqarish mexanizmi hisoblanadi[4].

S.I.Shishkin sog‘liqni saqlash iqtisodiyotini zamonaviy iqtisodiy nazariya vositalari orqali o‘rganish va sog‘liqni saqlash dasturlarining samaradorligini baholashga katta e’tibor qaratadi. Shishkin tibbiy xizmatlar bozori, moliyalashtirish, tibbiy sug‘urta, mehnat resurslari hamda sog‘liqni saqlash dasturlarining samaradorligini baholashning zamonaviy usullarini yoritgan. Xarajatlarni boshqarishda iqtisodiy tahlil vositalaridan foydalanish va xarajatlar tarkibini tibbiy natijalar bilan bog‘lash zarurligini asoslaydi[5].

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy mohiyati tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni mavjud moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari orqali qondirish jarayonida shakllanadi. Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti boshqa tarmoqlardan inson salomatligiga bevosita ta’sir qiluvchi xizmatlar ishlab chiqarilishi, xizmatlarning ijtimoiy ahamiyati yuqoriligi va resurslardan foydalanish natijalarining uzoq muddatda namoyon bo‘lishi bilan farqlanadi. Tibbiyot muassasasida sarflangan har bir resurs tibbiy xizmatning hajmi, sifati va yakuniy natijasiga ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiy xizmatlarda xarajatlarni boshqarish faqat moliyaviy mablag‘larning sarflanishini nazorat qilish emas, balki resurslarni xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari bo‘yicha oqilona taqsimlash, xarajatlarning natijadorligini baholash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish jarayonini ham qamrab oladi.

XULOSA

“Xarajatlar ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mazmuni ham faqat mablag‘larning belgilangan maqsadda sarflanganligini aniqlash bilan cheklanmaydi. Nazorat xarajatlarning rejalashtirilgan miqdordan og‘ishini, ushbu og‘ishlarning sabablarini va sarflangan resurslarning tibbiy xizmatlar natijalariga ta’sirini aniqlashga xizmat qilishi kerak. Rejalashtirilgan va amaldagi xarajatlar o‘rtasidagi tafovutlar xizmatlar hajmining o‘zgarishi, bemorlar oqimi, dori vositalari va boshqa resurslar narxining o‘zgarishi, texnologik ehtiyojlar yoki boshqaruv qarorlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun xarajatlar ustidan nazoratni natijaviy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash boshqaruvga xarajatlarning o‘zgarish sabablarini chuqurroq anglash va zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Sog‘liqni saqlash xarajatlarining samaradorligini baholashda “sarflangan mablag‘ qancha?” degan savoldan “sarflangan mablag‘ evaziga qanday natijaga erishildi?” degan savolga o‘tish muhim nazariy o‘zgarishni anglatadi. Bun-

[2]Arrow, K. J. (1963). Uncertainty and the welfare economics of medical care. The American Economic Review, 53(5), 941–973.

[3]Hsiao W. C. (2000). What should macroeconomists know about health care policy: A primer (IMF Working Paper No. 00/136). International Monetary Fund. https://doi.org/10.5089/9781451855807.001

[4]Шейман И. М. (2012). Модернизация управления здравоохранением: проблемы и решения. Издательский дом «Дело»

[5]Колосницына М. Г, Шейман И. М., Шишкин С. В., Засимова Л. С., & Капицын, Н. А. (2009). Экономика здравоохранения. Издательский дом ГУ–ВШЭ.

day yondashuv xarajatlar hajmi bilan bir qatorda ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar soni, xizmat birligiga to‘g‘ri keladigan xarajat, davolash natijalari, xizmat sifati, bemorlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va mavjud resurslardan foydalanish darajasini baholashni talab qiladi. Xarajatlarning kamayishi har doim ham samaradorlikning oshganligini anglatmaydi, chunki resurslarning haddan tashqari qisqartirilishi tibbiy xizmat sifati va natijalarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Sog‘liqni saqlashda samaradorlikning iqtisodiy mezoni xarajatlarni minimal darajaga tushirish emas, balki maqbul xarajat evaziga yuqori tibbiy va ijtimoiy natijaga erishish bilan belgilanadi”[6].

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlar samaradorligini iqtisodiy mazmunini o‘rganish xarajatlarning samaradorligi mablag‘lar hajmi bilan emas, ushbu resurslar evaziga yaratiladigan tibbiy xizmatlar hajmi, sifati va yakuniy natijalari bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy ahamiyati xarajatlarni boshqarishda tejamkorlik va tibbiy natijadorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashni talab qiladi. Xarajatlarning qisqarishi maqsad sifatida qaralmaydi, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori tibbiy va ijtimoiy natijaga erishiladi.

Sog‘liqni saqlash tizimining raqamli transformatsiyasi xarajatlar samaradorligini boshqarish uchun yangi axborot manbalari shakllantiradi. Xarajatlar, xizmatlar hajmi, bemorlar oqimi, dori vositalari sarfi, moddiy-texnik resurslardan foydalanish va tibbiy natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lash boshqaruv qarorlarini aniqligini oshiradi. Natijadorlikka asoslangan bunday yondashuv resurslarni yuqori ehtiyoj va yuqori samara beruvchi yo‘nalishlarga yo‘naltirish, samarasiz xarajatlarni aniqlash va mavjud moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1.Arrow, K. J. (1963). Uncertainty and the welfare economics of medical care. The American Economic Review, 53(5), 941–973.

2.Hsiao W. C. (2000). What should macroeconomists know about health care policy: A primer (IMF Working Paper No. 00/136). International Monetary Fund. https://doi.org/10.5089/9781451855807.001

3.Шейман И. М. (2012). Модернизация управления здравоохранением: проблемы и решения. Издательский дом «Дело»

4.Колосницына М. Г, Шейман И. М., Шишкин С. В., Засимова Л. С., & Капицын, Н. А. (2009). Экономика здравоохранения. Издательский дом ГУ–ВШЭ.

5.Qarshiboyeva, D. (2025). Sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillashtirish. Modern Science and Research, 669–672. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.62427

[6]Qarshiboyeva, D. (2025). Sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillashtirish. Modern Science and Research, 669–672. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.62427